

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulkumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Muzaffar Komilov (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)	

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nozliya Normurodova

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Tanju Seyhan (Turkey)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)	

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Munavvara Qurbonova

Bolalar nutqida emotsional deysisning voqelanishi6

Nurbek Ahmadjonov

O'zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning
lingvistik aspektlari24

Aynel Mashadiyeva

Turkiy tillar va dialektlardagi sifatdoshlarning qiyosiy-tarixiy tadqiqi41

Firuz Abdusalomov

Zamonaviy media diskursida harbiy leksikaning
semantik transformatsiyasi58

Elnare ALIYEVA

Türk Dillerinde İsimlerde Çoğulluğun Bazı Özellikleri71

ADABIYOTSHUNOSLIK

Almaz Ülvi BİNNƏTOVA

Ensiklopedik Təfəkkürə Malik Mənəviyyat Memarı (İsrafil
Məmmədovun “Uç, göyərçinim, uç” əsəri haqqında ədəbi qeydlər).....83

Mohida Qodirova

Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining
ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi95

TARJIMASHUNOSLIK

Yorkinoy Nasirdinova

“La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin”
pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi.....107

Ilhom Xolmuminov

Badiiy hikoya tarjimasining kognitiv mexanizmlari va paradigmatic
modellashtirish119

SOTSILOGIYA

Komil Kalanov

Sun'iy intellekt texnologiyalarining sotsiologik diskurs tahlili133

ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA

Adhamjon Ashirov

Samarqand bozorlari tarixi va o'ziga xos xususiyatlari156

CONTENT

LINGUISTICS

Munavvara Kurbanova

The realization of emotional deixis in children's speech6

Nurbek Ahmadjonov

Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and
German Leadership-Communication Discourse24

Aynel Mashadiyeva

Participles in Focus: a Comparative-Historical Study in Turkic
Languages and Dialects41

Firuz Abdusalomov

Semantic Transformation of Military Lexicon in Contemporary
Media Discourse58

Elnare ALIYEVA

Particular Features of Noun Pluralization in Turkic Languages71

LITERATURE

Almaz Ulvi BINNATOVA

Encyclopedic Thinking and the Artistic Representation of Spiritual
Memory (Literary notes on Israfil Mammadov's work "Fly, my
dove, fly").....83

Mohida Qodirova

From Historical Source to Artistic Interpretation: the Portrayal
of Esondavlat Begim in English Historical Novels.....95

TRANSLATION STUDIES

Nasirdinova Yorkinoy

"La Fermeté des faibles": The First French Translation of Sufi
Olloyor's Didactic Work *Sabot ul-ojizin*.....107

Ilhom Kholmuminov

Cognitive Mechanisms and Paradigmatic Modeling of
Literary Translation.....119

SOCIOLOGY

Komil Kalanov

Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies ..133

ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY

Adhamjon Ashirov

The History and Distinctive Features of Samarkand Markets156

**SOTSIOLOGIYA
SOCIOLOGY****Sun'iy intellekt texnologiyalarining
sotsiologik diskurs tahlili**Komil Kalanov¹**Abstrakt**

Maqolada davrimizning eng dolzarb mavzusiga aylangan sun'iy intellekt imkoniyatlarining ijtimoiy fanlarga o'tkazgan ta'siri kognitiv fan doirasida tahlil etilgan. Sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy-texnologik ishlanmalar fan va ta'lim sohasini, qolaversa, inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq barcha soha hamda tarmoqlarni to'liq qamrab olmoqda. Bugungi sharoitda uning ijtimoiy-gumanitar fanlarga ta'siri, oqibatlarini, kutiladigan o'zgarishlardagi tendensiyalar soha tadqiqotchilarini jiddiy ilmiy harakat qilishga chorlaydi. Ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimida sun'iy intellekt bilan bog'liq voqeliklar inson omili va ruhiyati bilan bog'liq hodisa sifatida davriy o'rganib kelinayotgani maqolada tizimli tahlil etilgan. Miya faoliyati, ong va tafakkurning falsafiy-sotsiologik tomonlari, kognitiv psixologiya va kognitiv lingvistika modellari zamonaviy shartlarini ishlab chiqishda sun'iy intellektning ko'rsatayotgan ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, kognitiv fan, miya faoliyati, ong, tafakkur, kognitiv psixologiya, kognitiv lingvistika.*

Kirish

Bugungi axborotlar jamiyatida qaysi masalalar to'g'risida diskurs olib borish qiyin? Raqamli jamiyatmi, ijtimoiy tarmoqlar yoki sun'iy intellekt to'g'risida? Deylik, sun'iy intellekt to'g'risida diskurs tahlil yozish yoki bahsga kirishish uchun munosabat bildirilsa, unda qanchalik o'zimizni namoyon eta olamiz. Sun'iy intellekt ijtimoiy hayotning bir qismiga aylanib borar ekan, uning boshlanish bobidagi fasllar va yakuniy xulosa qismidagi taklif-mulohazalarimizda diskursning tadqiqot obyekti aniqlay olamizmi? Sun'iy intellektning diskursini baholash uchun ikkita jihatga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Sotsiologik nuqtayi

¹ Kalanov Komil Kulaxmatovich – sotsiologiya fanlari nomzodi, professor, Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti (TIFT).

E-pochta: komiljon@yandex.ru

ORCID ID: 0009-0009-2344-1814

Iqtibos uchun: Kalanov, K.K. 2024. "Sun'iy intellekt texnologiyalarining sotsiologik diskurs tahlili". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 133 – 155.

nazardan uni “Ko‘zgudagi “Men” nazariyasiga tayanib, kompyuter monitoringida joylashgan dasturlar va uning (ko‘zguning ortidagi “ko‘chma” ma’noda) ta’sirida sodir bo‘ladigan voqeliklar tahlilini qiyoslaymiz.

O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt bilan bog‘liq texnologiyalarni jadal rivojlantirish va buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga oid samarali ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorni imzolar ekan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga Davlat Dasturini amaliyotga kompleks tatbiq etish yuzasidan javobgarlik yuklandi [PQ358-sonli Qaror].

XX asrning atoqli sotsiologi M.Mid o‘z qarashlarida “prefigurativ madaniyat” atamasini qo‘llaydi [Мид 1988, 429]. Bu madaniyat doirasida yosh avlod bilim va innovatsiyalarni kattalarga nisbatan tezroq o‘zlashtiradi, natijada kattalar ayrim texnologiyalarni o‘z farzandlaridan o‘rganishga majbur bo‘ladi. Yoshlarning kattalarga nisbatan o‘z ustunliklarini anglashi, tabiiyki ijtimoiy nizolarni kuchaytiradi. Farzandlar tomonidan ota-onalar hokimiyatini yashirin yoki oshkora inkor etilishi, turli xil cheklov mexanizmlarini ishga tushishiga olib kelishi mumkin. Bir tomondan, sun’iy intellekt ijtimoiy hayotning bir bo‘g‘ini sifatida ilgari surilar ekan, ikkinchi tomondan, turli xil gadjet va qo‘l telefonlarining zarari to‘g‘risidagi qarama-qarshiliklar jamiyatda prefigurativ madaniyat ta’siri yanada faollashganidan dalolat beradi. Eng ko‘p ilgari suriladigan dilemma: “Yoshlar umuman kitob o‘qimay qo‘ydi”.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy-texnologik ishlanmalarning paydo bo‘lishi, tabiiyki, ko‘plab tadqiqotchilarning shu paytgacha mavjud bo‘lgan tabiiy intellektni endilikda hisoblash modellari asosida tushuntirishga qaratilgan urinishlarga undadi. Natijada ilm-fanning turli soha va tarmoqlarida shu kabi hisoblash modellari bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi, borilmoqda. Lekin, kognitiv fanlar tizimi, jumladan “kognitiv psixologiya”, “kognitiv neyrofan”, “kognitiv lingvistika”, “tafakkur sotsiologiyasi”, “ong falsafasi” va “ong psixologiyasi” kabi fanlarda jiddiy tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, hisoblash modellarini ijtimoiy fanlar tizimida ifodalovchi nazariy yondashuv va konsepsiyalarning yuksak darajadagi mexnazimlari shakllanmadi. Biroq davomli tadqiqotlar olib borilishi natijasida ushbu fan ijtimoiy-siyosiy, psixologik

va falsafiy murakkab muammolarni muhokama qilish maydoni sifatida qolmoqda.

Bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylangan sun'iy intellekt tizimi har bir sohada hisoblash yondashuvining imkoniyat va chegaralaridagi ratsionallik, bilish, bashorat kabi mexanizmlar ijtimoiy-psixologik muhit va undagi ish faoliyatini tushunish mexanizmlarini oshirmoqda. Ushbu tizimda asosiy muhokama qilinayotgan masalalar – kognitiv ongning tabiati va xususiyatiga oid doimiy falsafiy savollar, inson hayotining bir qismi bo'lgan sub'ektivlik, erkin tanlov, ijodni anglash, shakllanish va rivojlanish, mantiqqa oid bilimlar, axloqiy-huquqiy me'yorlarni his etishdagi munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Albatta, har qanday hisoblash mexanizmlari, shu jumladan sun'iy intellekt davrimizning ayni damda mukammal darajadagi axborotlarni baholash mezoni sifatida e'tirof etilmasin, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fanlar metodologiyasi mavjud bo'lmagan holatda, har qanday ilmiy bashoratni mustaqil hal etolmaydi.

Istisno etolmaymiz, bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlaridan axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, harbiy-mudofaa, madaniyat, ta'lim, sport va boshqa sohalarda keng qamrovli jadal foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Ikkinchi tomondan esa, u insonning o'ziga tahdid soluvchi qator muammolarni keltirib chiqarayotganligi va yanada murakkablarini paydo qilishi mumkinligi sir bo'lmay qoldi. Yaqin istiqbolda ushbu masalada insoniy qadriyatlarga tahdid soluvchi muammolar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, sun'iy intellektning har bir shaxs uchun muhim hisoblangan individual mustaqil qadriyatga, erkin tanlov va mustaqil ijodkorlik harakatlariga nisbatan o'zidagi mavjud natijalar bilan xalal qilish tendensiyalari taxmin qilinadi.

Ijtimoiy jarayon va munosabatlarning o'zgarishida sun'iy intellektning o'рни

So'nggi o'n yillikda ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining shunchaki ajralmas atributigina bo'lib qolmay, balki ijtimoiy jarayon va munosabatlarni tubdan o'zgartiruvchi omilga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar yildan-yilga o'z muloqot doirasini sezilarli darajada kengaytirib, inson xulq-atvorining texnologik muhofazalangan axborotlar dunyosiga turlicha model va motivlardan tashkil topgan olamiga qaram qilib qo'ydi. Buning evaziga esa jonli, bevosita muloqotning o'rnini ijtimoiy tarmoqlardagi psevdomuloqot egallay boshladi, bunda haqiqiy, to'g'ridan-to'g'ri

aloqalar o'rnini muloqot illyuziyasini yuzaga keltiruvchi bilvosita, vositachilikka asoslangan o'zaro ta'sir egalladi.

Ijtimoiy gumanitar fan sohasi tadqiqotchilari so'nggi yillarda o'z diqqat-e'tiborlarini eng so'nggi nus'hada yaratilgan axborot texnika kommunikatsiyalarining jamiyat hayotida tutayotgan o'rnining qanchalik samaradorligini tahlil qilishga qaratilmoqda. Sababi oddiy: axborot manbalarini tez va sifatli tarqatishda elektron kompyuter texnologiyalarning eng so'nggi vakillarining imkoniyati yuqori bo'ladi. Ma'lumki, mavjud axborotlar ko'lamining barchasini ham ijobiy xarakterga ega deb bo'lmaydi. Jamiyat bilan ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlar doimo mutaxassislar diqqat-e'tiborida bo'lgan. Chunki "tarmoqlarning o'zi ijtimoiy hayotning umume'tirof etilgan tarmog'i" hisoblanadi, qolaversa, jamiyat matbuotga nechog'li katta ta'sir o'tkazsa, o'z navbatida, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy institutning o'ziga xos ko'rinishi sifatida "jamiyatga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan ajralib turadi".

Sun'iy intellektual tizim insoniyatga muayyan harakatlarni tavsiya qilgani holda, har bir shaxsning ushbu tavsiyalardagi ma'lumotlarga qanday asos bo'yicha tayanayotganini ham kuzatib boradi. Sun'iy intellekt bir tomondan individga ma'lumotlar bazasini yetkazar ekan, ikkinchi tomondan, individning o'zi tomonidan uzatilgan ma'lumotlarni tushunib yetishini ham talab etadi. Agar shaxs uni tushunmasa, yoki axborotlar jamiyatida ushbu tendensiyaning tushunishni istamasa, tabiiyki, mustaqil shaxs sifatida axborotlar bazasini qabul qilishdan to'xtaydi. Shu boisdan ham katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanilar ekan, birinchi navbatda, ushbu ma'lumotlarni yetkazib beruvchi yoki joylashtiruvchi manbadan obyektiv-empirik korrelyatsiyaga rioya etish qat'iy talab etiladi. Aks holda, subyektivlikka asoslangan bo'shliq (xaos) mavjud ilmiy tadqiqotlar istiqbolini xavf ostiga qo'yadi. Ikkinchi tomondan, sun'iy intellekt ilgari surilishi zarur bo'lgan har qanday ilmiy faraz (gipoteza), nazariya, metodologiya va eksperimentlarga ehtiyoj sezmaydi.

Bunday sharoitda tadqiqotchi uchun muammoni o'rganib, tahlil etishga da'vogar shaxs uchun ilmiy korrelyatsiyani aniqlash, mavjud muammoning sabab va oqibatlarini anglamasdan ilmiy bashorat qilish imkoni yuzaga keladi. Tabiiyki, bu xatarli vaziyatni hosil etib, uning ijtimoiy-gumanitar fanlarga zarari sezilarli bo'ladi. Xususan, sotsiologik tadqiqotlar va sotsiopsixologik korrelyatsiya

bo'yicha sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishda tadqiqotchilarning hushyor bo'lishi talab etiladi. Boisi, sun'iy intellekt tizimiga joylashtirilgan qaysidir sotsiologik so'rovnoma yoki psixologik testlardan foydalanilar ekan, uning belgilangan hudud aholisi turmush tarzi va mentaliteti xususiyatlarini ochib berolmaslik imkoniyatlari yuqori bo'lishi mumkin. Sababi, inson omili bilan bog'liq ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va eng asosiysi keng jamoatchilikga uning statistikasi taqdim etilar ekan, sun'iy intellekt tizimidan olingan so'rovnomalardan foydalanish qaysidir ma'noda raqamli va jismoniy makon o'rtasidagi chegarani yo'qqa chiqarishi mumkin. Chunki o'zga jismoniy va ijtimoiy makon uchun mo'ljallab shakllantirilgan so'rovnoma belgilangan obyekt uchun tanlangan chegaralarni yo'qqa chiqaradi, unda istiqomat qilayotgan individning xulq-atvorini o'rganish va boshqarish samaradorligi o'z-o'zidan manipulyatsiyaga yo'naltiriladi. Shu boisdan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma birinchi urinishning o'zidayoq o'z reprezentativligi, ya'ni ishonchlilik darajasini yo'qotadi.

"Sun'iy intellekt" mavzusi bilan bog'liq tadqiqotlar va ishlanmalarning vujudga kelishi XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Uning asosidagi bosh g'oyani inson intellektual imkoniyatlari bilan bog'liq hodisalarni sun'iy ravishda qaytadan yaratish g'oyasi tashkil etgan. Sun'iy intellektning yuqori imkoniyati va samaradorligi bilan bog'liq ilmiy prognozlar uning ilk paydo bo'lgan davrlaridanoq bahsli va dolzarb qarashlarni yuzaga keltiradi. Ayrim qarashlarda ushbu qurilmaning kishidagi intellektual harakatlarni sun'iy ravishda qayta yaratilish imkoniyatlari yuqori bo'lishi mumkin, deb hisoblaganlar. Mahalliy tadqiqotchilar U.Qodirov va J.Qarshiyevlarning fikriga ko'ra: "Sun'iy intellektni shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimlari, o'quv jarayonining nazorat tizimlari, o'quvchilar bilimini baholash tizimlarida uchratish mumkin. Bunday tizimlardan foydalanib, nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish, balki o'qituvchilarning o'quv yuklarini kamaytirilishiga erishish mumkin" [Қодиров, Қаршиев 2021, 6]. Biroq sun'iy intellektni nafaqat tafakkur mahsuli, balki bilish jarayonlari hamda ijtimoiy-ruhiy kechinmalarni sun'iy tarzda imitatsiya qilib, insonlarni o'zidan chiqarib ham yuborishi mumkin, deb hisoblovchilar ham mavjud edi.

Sun'iy intellektga oid ilk ma'lumotlar paydo bo'lganidan boshlab qariyb yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. Ilm-fanda sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqishga oid yirik natijalar paydo bo'ldi. Lekin sun'iy ravishda insoniyatning farqlovchi belgisi sifatida

e'tirof etib kelingan ong va aqlni qayta yaratish imkoniyati haqidagi bahslar davomi hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayni paytda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mudofaaga oid va kishilik jamiyatiga xos muammolarga yechim topish uchun sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishning mutlaqo yangi muhiti yaratilmoqda. Insonning endilikda jismoniy va aqliy imkoniyatlarini yangicha tarzda anglash zarurati vujudga kelib, uni tom ma'nodagi "antropologik inqilob" deb hisoblash mumkin [Майер-Шёнбергер, Кукьер 2014, 37].

Tabiiy savol tug'ilishi mumkin, "internetlashtirish" atamasini qo'llagan holda, insonlarning zamonaviy jamiyatga ijtimoiylashuvi jarayonlari qanday kechayotganligini aniqlash dolzarbligicha qolmoqda. Kishilarning onlayn va offlayn makonda kechayotgan muloqotlarini qiyoslash va birining ikkinchisi bilan o'rtasidagi farqni o'rganish, har qanday tadqiqotchi uchun qiziqarli, albatta. Bunday qiyoslashni amerikalik sotsiolog M.Maklyuen "akustika (ovoz)ning sehrli olami" bilan "nigohning serjilo dunyosi" o'rtasidagi muloqotga o'xshatadi. Ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy hayot diskursini shu qiyosga o'xshatish mumkin. M.Maklyuen tovushlar dunyosini tinglayotgan shaxs olami bilan yozuv o'rtasidagi vizual fikrlar sun'iy intellektda beparvolikdan farqlash olamiga o'tishini ta'kidlaydi. Kompyuter ekraniga ko'chirilgan matn, so'z va ma'nolarning ta'sir kuchi ijtimoiy nazoratga olinadi.

Rossiyalik tadqiqotchi B.Glinskiy "inson ongi rivojiga uni o'rab turgan sotsial makon bilan bog'liq bo'lgan doimiy axborotlardan ko'ra atrofdan keladigan juda katta hajmdagi mohiyati va tarkibi o'ziga xos ravishda qayta ishlangan ma'lumotlar bazasi katta ta'sir o'tkazadi" [Глинский 1990, 37] deydi. Boshqa bir tadqiqotchi N.Bogomolova esa, "kishi o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotni ilk bor mavjud hayotiy tajriba, o'zaro muloqot asosida olsa, keyingi eng muhimlarini turli xil axborot manbalari (kitob, radio, televideniye, gazeta, jurnal va boshqa simvolik belgi xarakteriga ega bo'lgan vositalar)dan oladi", deb yozadi [Богомолова 1991, 69]. Shu o'rinda e'tirof etish mumkinki, jamiyatning ijtimoiy-sotsial taraqqiyoti insonning ichki imkoniyatlaridan ko'ra tashqi axborot vositalariga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Fan tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, sun'iy intellekt to'g'risidagi ta'limotning paydo bo'lishi aynan "kognitiv tadqiqotlar" deb nom olgan fanlararo harakatlar vujudga kelgan davrga to'g'ri keladi. Tabiiy intellektni sun'iy tarzda imitatsiya qilish mumkinligi va uning mohiyatan murakkab tarzda tashkil etilgan jihatlarini hisoblashdan o'zga narsa emasligi haqidagi g'oyalar psixologlar

(kognitiv psixologiya), ayrim holatlarda lingvistlar, neyrofan soha mutaxassislari va boshqa olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Kognitiv fanlar doirasida kompleks tadqiqotlar olib borishning o'zaro hamkorlik imkoniyatlari paydo bo'ldi. Natijada bir vaqtning o'zida empirik, eksperimental va nazariy masalalarning yechimini hisoblash yordamida amalga oshirish imkoniyati vujudga keldi. Bu esa kognitiv tadqiqotlar tarkibiga kirgan fanlarning quyidagi ikkita asosiy qoidasini belgilab berdi:

1. Bilishning barcha jarayonlarini hisoblash sifatida tushunilishi.

2. Fan va ta'limda hisoblashlar axborot tashuvchilar tomonidan mental reprezentativlik asosida amalga oshiriladi [Лекторский 2012, 48].

Ushbu yondashuvdagi mushohadalar muayyan ilmiy nazariyani ishlab chiqish, qaysidir bir nazariy asosda eksperimentlar o'tkazish, ma'lum ilmiy natijalardan texnologik maqsadlarda foydalanish haqida boradigan bo'lsa, ijtimoiy-falsafiy tahlillarga murojaat qilmaslik ham mumkin. Lekin bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchilar yaxshi biladi, ya'ni har qanday ilmiy nazariya o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Buning uchun muayyan tadqiqot dasturi doirasida shakllantirilgan, ilmiy farazlarni o'zida jamlagan eksperimental yondashuv zarur. Ilmiy dastur yordamida muammoga yuzlangan dunyoning manzarasi, olam tuzilishining obyekt doirasidagi chegaraviy asoslarini ifodalovchi konsepsiya ishlab chiqiladi. Ushbu konsepsiyaning ifodalanishi tadqiqotchini falsafiy fikrlash maydoniga kirganligini anglatadi. Chunki tadqiq etilayotgan ilmiy sohada to'plangan tajribani amaliyotga joriy etish uchun asrlar davomida to'plangan ijtimoiy-falsafiy mushohadadan xabardor bo'lish lozim. Kognitiv fanning vujudga kelishida yuqorida keltirilgan ikki asosning ijtimoiy-falsafiy talqinini yoritish uchun tadqiqotchidan shu jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi.

XXI asr o'z o'zgaruvchanligi bilan insoniyatning butun bir ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kundalik hayoti, ong va tafakkuri, dunyoqarashi hamda mentalitet va identiklik masalalarining transformatsiyalashuviga ta'sir o'tkazmoqda. Asr boshida tadqiqotchilar tomonidan ko'p ishlatiladigan "o'zgaruvchan jamiyat" atamasi bugungi kunda kam qo'llanilmoqda. Uning o'rnida "jamiyatning transformatsiyalashuvi", "innovatsion jamiyat", "axborotlashgan jamiyat", "jamiyatning globallashuvi" kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Bizningcha, bugungi kundagi

Markaziy Osiyo sharoitida “o‘zgaruvchan jamiyat” atamasidan tadqiqotchilar me‘yor darajasida foydalanishlari yoki “davra suhbatlari” o‘tkazishda bosh mavzuga olib chiqishlari foydadan holi bo‘lmaydi.

Ijtimoiy sohada sun‘iy intellektga murojaat qilinar ekan, “hisoblash” tushunchasi ostida nimalar nazarda tutilishini aniqlash zarur. Sababi, har qanday ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-psixologik muammolarda hisoblash omili ilgari surilar ekan, uni matematik emas, balki falsafiy masala sifatida o‘rganish nazarda tutiladi. Umuman olganda, qaysi yo‘nalishdagi hisoblashlarni e‘tiborga olish mumkin? Masalan, uzluksiz ijtimoiy jarayonlarni hisoblash sifatida baholash mumkinmi? Inson miyasidagi neyronlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan o‘zaro ta’sirlarni kognitiv axborotning qayta ishlash jarayonlariga hisoblash sifatida tadbiq etish mumkinmi? Ongga xos bo‘lgan intensional (ong aktlarining o‘ziga xos xususiyati) aktlarni ongning fenomenal xarakteri (“kvalia” muammosi), introspeksiya, ya’ni kishining o‘z ongli holatini anglashi doirasida hisoblash orqali izohlash mumkinmi? Shu kabi savollar majmuasi kognitiv fanning sun‘iy intellekt bilan bog‘liq izohini taqdim etadi.

Yuqorida “mental reprezentatsiya” masalasi ko‘tarilib, unda kognitiv fan doirasidagi hisoblashlarni amalga oshirish mumkinligi ta’kidlangandi. Buning uchun shu paytgacha tushunilib kelingan an’anaviy axborot manbalarini tashuvchi agentlar (kitob, jurnal, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari va b.) bilan an’anaviy tarzda o‘rganilgan nazariy-metodologik konsept xususiyati haqidagi bahslar reprezentativligi o‘rtasidagi munosabatlar hisoblanadi. Unda ratsional-aqliy mushohadadan tashqari idrok, tasavvur, tushuncha, hukm (propozitsiyalar), kategoriya, kognitiv sxemalar kabi hissiy bilimlar majmuasi ham e‘tibordan chetda qolmaydi. Sun‘iy intellekt taqdim etilar ekan, unda mazkur hisoblash jihatlarining ham an’anaviy, ham e‘tibordan chetda turgan barcha ko‘rinishlari o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi.

Kognitiv fanning sun‘iy intellektga ta’siri

Falsafa kognitiv fanni shakllantirgan fanlar qatoriga kirgan ilk sohalaridan biri bo‘ldi va aynan faylasuflar ushbu sohada asosiy nazariy yo‘nalishlarni belgilab berdilar. Masalan, mashhur amerikalik faylasuf X.Patnem kognitiv fan rivojlanishining dastlabki bosqichida funksionalizm deb atalgan tadqiqot dasturini shakllantirdi. Ushbu dasturga muvofiq, barcha mental holatlar (faqatgina tor ma’nodagi kognitiv holatlar emas, balki istaklar,

niyatlar, emotsiyalar va h.k.) bilish va harakat subyekting boshqa holatlari (mental va nomenal) funksiyalari sifatida tushunilishi mumkin [Патнем 1999, 173]. Funksionalizm mentallikni hisoblash sifatida tushunishga falsafiy asos bo'lib xizmat qildi.

Kognitiv fan doirasida olib boriladigan tadqiqotlar xarakteri va unga kiruvchi fanlar o'rtasidagi munosabatlar haqida hisoblash usularini qo'llash asosida qator muhim xulosalarni keltirib chiqarish mumkin. Jumladan, sotsiologiya va psixologiyada alohida e'tirof etiladigan funksionalizm nazariyasiga ko'ra, jamiyat mental holatining tabiati faqat uning funksiyasi bilan belgilanadi. Ushbu funksiyani hisoblash sifatida tushunish zarurati tug'ilganda, undagi mavjud funksiyaning qaysi axborot tashuvchilarda amalga oshirilganligi muhim o'rin tutadi ("mental holatlarning ko'p karrali amalga oshishi" tezi). Masalan, jamiyatning mental reprezentatsiyasi yoki diniy identiklik yoki etnik identiklikda va yoki fuqarolik identikligida shakllantirilgan bo'lishi mumkin. Shuning bilan birga, hisoblash tushunchasiga muvofiq insondagi mental holatlarni o'rganish kognitiv neyron tuzilmalar asosida axborotni qayta ishlash jarayonlarining tahliliga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Kognitiv psixologiya yoki sotsiologiyada sun'iy intellekt sohasida ishlab chiqilgan ilmiy modellarni tushuntiruvchi modellar sifatida qo'llashi mumkin va buning uchun ushbu holatni neyrofan tadqiqotlari yig'indisi sifatida qaralishi ham shart emas. Chunki funksionalizm nuqtayi nazariga ko'ra, aynan inson miyasi mental holatlarni amalga oshirish imkoniga ega o'nlab usullardan faqat bittasi bo'lishi mumkin [Патнем 2002, 81 – 82].

Boshqa bir amerikalik mutafakkir J.Fodor funksionalizm g'oyalarini rivojlantirar ekan, o'zining "tug'ma fikrlash tili" nazariyasini ilgari suradi. Ushbu nazariya insonning kognitiv fan tizimida axborotni qayta ishlash qoidalarini belgilaydi hamda uni kompyuter qurilmasi dasturiga qiyoslash mumkin. Kompyuter dasturlarida qayta ishlanayotgan axborotlarning ma'noviy tavsifi bilan tahlillar olib borilmasligini inobatga olib (chunki muammoning ma'no tavsifi faqat inson tafakkuri tomonidan amalga oshiriladigan natijalarni ilmiy talqin qilish jarayonida yuzaga keladi), inson miyasi ham axborotning mazmuniy qismini emas, balki formal xususiyatlari bilan ishlaydi. Bunda semantik yondashuv bilan emas, balki sintaktik vositalar orqali harakat vujudga keladi [Fodor 1981, 225 – 257]. J.Fodorning fikriga ko'ra, bilish va ongni tushunish bilan bog'liq ko'plab g'oyalar, ilk bor sof ijtimoiy-falsafiy shaklda ilgari surilgan bo'lsa-da, kognitiv fan doirasida ular ikkinchi hayotga ega bo'ldi.

O'tgan asrning 80-yillari boshlarida "konneksionizm" deb atalgan yo'nalish ommalashdi. U mental holatlarda axborotni qayta ishlash ketma-ketlikda emas, balki parallel va taqsimlangan jarayonlar natijasida yuzaga keladi, degan tasavvurga asoslanadi [Васильев 2019, 10 – 11]. Agar kognitiv fanning ilk dasturlari simvolik mantiq sohasidagi ishlanmalarga (XX asrda yuzaga kelgan mantiqiy pozitivizm an'anasiga), mental reprezentatsiyalar, propozitsiyalar, propozitsional munosabatlar va mulohaza yuritish usullari haqidagi g'oyalarga tayangan bo'lsa, konneksionistik dastur butunlay boshqa an'alarga, ya'ni falsafiy empirizm, sensualizm, induktivizm va psixologik assotsiatsionizmga tayanadi. Shu bilan birga, ushbu an'alalar sun'iy neyron tarmoqlar modellarini ishlab chiqish va neyronlar guruhlari o'rtasida signallar uzatilishi xarakteri haqidagi tasavvurlar orqali mutlaqo yangi ko'rinish kasb etadi. Konneksionistik dasturning paydo bo'lishi kognitiv jarayonlarni tahlil qilishda hisoblash yondashuvi xarakteri haqida munozaralarni keltirib chiqardi va sun'iy intellektning yangi modellarini ishlab chiqishga kuchli turtki bo'ldi.

Raqamlashtirish va sun'iy intellekt

Tabiiyki, raqamlashtirish bugungi axborotlashgan davrimizning shioriga aylandi. U haqda turli mamlakatlarning siyosiy arboblari gapirmoqda, raqamlashtirish bilan bog'liq iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, moliya sohasining faoliyati, ma'muriy boshqaruv, mamlakatning mudofaa qobiliyati bog'lanmoqda. Raqamlashtirish ta'lim sohasiga ham jadal kirib kelmoqda va u koronavirus pandemiyasi davrida yaqqol namoyon bo'ldi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida biomeditsina jadal raqamlashtirilmogda. Hayotni global miqyosda raqamlashtirishga qodir bo'lgan mamlakatlar yaqin kelajakda jahon yetakchilariga aylanishi haqida jiddiy asoslar tobora kengroq ilgari suriladigan bo'ldi. Biroq raqamlashtirish deganda asosiy urg'uni axborotlashgan jamiyatning eng yangi bosqichi sifatida anglash talab etilmoqda.

Raqamlashtirish – bu axborotni kodlashning o'ziga xos (raqamli) usulidir. Bu shunday usulki, unda axborotning tarqatish tezligini beqiyos darajada oshirish imkonini beradigan va qayta ishlash uchun mutlaqo yangi imkoniyatlarni yaratadigan tizim tushuniladi. Umuman olganda, raqamlashtirish sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ularning mavjudligisiz shaxsiy kompyuterlar, smartfonlar va hech qanday aypadlar bo'lishi mumkin emas. Internet ham uningsiz mavjud

bo'lolmaydi. Raqamlashtirishsiz zamonaviy jamiyatda inson o'z imkoniyatlarini jiddiy namoyon etolmasligi, turli axborot oqimlariga integratsiyalashuvi, virtual raqamli reallikka o'z hayotining bog'lanib qolishini o'zgacha ruhda tasavvur ham qilolmasligi endi sir emas [Васильев 2000, 312].

Bugungi kunda turli xil amaliy muammolarga yechim aynan raqamlashtirish orqali qidirilmoqda va uning belgilangan qoidalaridan kelib chiqib, mavjud muammolar raqamli infratuzilma bilan tartibga solinadigan bo'lindi. Ammo, odatiy holda ayrim muammolarning hal qilinishi paradoks sifatida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Global raqamlashtirish bilan bog'liq holda paydo bo'layotgan yangi muammolar shu qadar jiddiyki, ular bizni ekzistensial-falsafiy chaqiriq oldida turganimizni o'ylashga majbur qiladi. Ayrim zamonaviy mutafakkirlar ushbu holatni "antropologik inqilob" deb atashmoqda, boshqalari esa "antropologik halokat" deb atashsa, yana boshqa bir vakillar bu ikki variantni bir vaqtning o'zida yuz berishini iddao qila boshladilar [Антропология революции 2009, 496].

Rivojlanayotgan robotlashtirilgan va raqamli dunyoda sheriklik muhitini yaratish muammolari, milliy raqamli suverenitet muammolarining keskinlashuvi va ishlab chiqarish hamda qurolli kuchlarni robotlashtirish sharoitida insoniyatni maksimal darajada insonparvarlashtirilgan va ekologik yo'naltirilgan asosda birlashtirish masalalari insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun yangi chaqiriqdir. Zero, sun'iy intellekt va uning istiqbollari haqida o'tgan asrning 1950-yillaridayoq keng muhokamalar boshlangan edi. Aynan shu paytda SI atamasi ham qo'llanila boshladi, u aynan tadqiqotlar sohasi va IT ishlanmalarni anglatar edi [Воронцов, Мамычев 2019, 59]. Matematik, o'yin va boshqa masalalarni mantiqiy, evristik va boshqa usullar yordamida avtomatlashtirish sohasidagi ilk yutuqlar mualliflarni ilhomlantirdi, biroq keyinchalik bu entuziazm biroz pasaydi, chunki kompyuterlarning ishlab chiqarish quvvati yetarli emas edi va ma'lumotlarni qog'oz tashuvchilardan raqamlashtirish vaqt talab qilar edi.

Biroq ikki o'n yil o'tib sun'iy intellektga qiziqish yana kuchaydi. Mantiqiy qoidalarga asoslangan qo'llanma ekspert tizimlari va mashinali o'qitishning kuchaytirilgan usullari bilan neyron tarmoqlar asosida ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari yaratildi, bunda o'sha paytdagi elektron hisoblash mashinalari ishlab chiqarish quvvatining ortishi ham muhim rol o'ynadi.

Hozirgi vaqtda sun'iy intellektga bo'lgan qiziqishning o'sishi

va uning jadal rivojlanishi quyidagi omillar bilan izohlanadi: eng avvalo, raqamli texnologiyalarni intellektuallashtirish asosida qo'l mehnatini sezilarli darajada qisqartirish va biznes samaradorligini oshirish imkoniyatlari o'rganilmoqda; yig'ilgan va qo'llanilayotgan raqamli ma'lumotlar hajmining kattaligi, ayniqsa, COVID pandemiyasi paytida masofadan turib axborotlarni foydalanuvchilar o'rtasida pasaygan yosh assimetriyasi bilan dasturlashtirilgan kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi (ZOOM dasturlari) insoniyat tomonidan amalga oshirilgan yuksak antropologik inqilob edi; tashkilot va idoralarda xodimlar bilan rahbariyat o'rtasida ilgari surilayotgan topshiriqlarni bajarishda masofaviy ishlashdagi afzallik mehnat unumdorligining keskin oshishiga olib keldi. Buning natijasida kompyuter xususiyatlarining yanada takomillashuvi, ularning ishlab chiqarish quvvati, xotira hajmi, mobilligi va energiya tejamkorligini oshirib yubordi; masofadan ko'rsatiladigan xizmatlar spektrining kengayishi faqat axborot va hisoblash xizmatlarinigina emas, balki muvaqqat (uchuvchisiz boshqariladigan dron va shu kabilar) va boshqa masofaviy texnika vositalarining mavjudligi tufayli modda va buyumlarni kerakli uzoq masofalarga yetkazib berish imkoniyatlarini ham oshirib yubordi.

Intellektual mulk himoyasi

Sanab o'tilgan ushbu IT ishlanmalar "intellektual mulk" deb atalishga da'vogarlik qilsa-da, ushbu ishlanmalarni bemalol intellektual (intellectual) sifatida qarash mumkin. Bugungi kunda aynan intellektuallar har qanday tadqiqot obyektni sun'iy intellekt ishlanmalarini qo'llagan holda foydalana oladilar. Muvaqqat intellektual tizimlar (MIT), o'zlarining yuqori tezlikdagi va boshqa regulativ xulq-atvor mexanizmlarini murakkab tizimdagi algoritmlashtirilmagan hisoblashlar bilan yechimini hal etishlariga qaramasdan, insonga xos bo'lgan dunyoni anglash, refleksiya qilish, vaziyatli yondashish, shaxsiy manfaatlar, bilimlar, tarbiya va emotsional holat (emotsional motivatsiya)larga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatiga ega emaslar [Васильев, Куликов, Пащенко 2020, 171 – 191].

Intellektual atamasi an'anaviy munosabatlarda inon omiliga nisbatan qo'llanib kelingan bo'lsa, endilikda u faqat avtomatik tarzda maqsadga erishishni emas, balki o'z-o'zini axborot texnologiyalariga topshirish, maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvor mexanizmlariga qo'shimcha ravishda ehtiyojlar va maqsad qo'yish motivatsiyasini namoyon etadigan ishlanmalarga nisbatan qo'llanilishi kutilmoqda.

Yaqin kelajakda IT texnologiyalar o'zlarining mavjud aqliy (ratsional) xulq-atvor me'yorlari va maqsad qo'yish qobiliyatlarini har tomonlama texnologik va dasturiy rivojlantirib, aprior, ya'ni avvalgisidan farq etuvchi yo'nalishlarda oldindan belgilangan vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, har qanday natija beradigan vazifalarga yo'naltirib borishi mumkin. Jumladan, sanoat, tibbiyot va boshqa sohalarda qo'llanilayotgan robototexnikalarga kelsak, hozircha ular, asosan, robot-manipulyator yoki harakatlanuvchi robotlar vazifasini bajarmoqda, lekin istiqbolda ularning intellektual maqsadlari sun'iy intellekt doirasida insoniy ong va harakatlar ketma-ketligini ma'lum darajada nazorat qilishi prognoz qilinmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat davlat va huquq uchun muayyan refleksiyaning talab etuvchi "qo'zg'atuvchi omil" sifatida, balki huquq evolyutsiyasining muhim jihati sifatida ham namoyon bo'layotgan holatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday xulosaga kelishdan oldin, huquq sohasi va sun'iy intellekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari va istiqbollarni anglashda huquqning ijtimoiy-iqtisodiy shartlanganligi, shuningdek, uning texnologik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligiga oid nazariy yondashuvlar tadqiq etiladi. Olimlarning prognozlariga ko'ra, jahon hamjamiyati o'z taraqqiyot rivojining oltinchi texnologik to'liqini namoyon etmoqda, lekin shunday bo'lsa-da, uning industrial davri hali to'liq shakllanib ulgurmadi. Davlatlar hozircha faqat oltinchi texnologik to'liqning natijalari bilan rivojlanayotganiga qaramasdan, uning davomiylik chegarasi hozircha noma'lum bo'lib, vaqt jihatidan chegaralar masofasi qaysidir bir makon bilan cheklanishi mumkinligini taxmin qilishmoqda [Васильев, Куликов, Пащенко 2020, 171 – 191]. Oltinchi texnologik to'liqinni to'liq shakllantirish va yettinchi to'liq uchun zamin yaratish, olimlar fikricha, yana taxminan 15-20 yil vaqtni talab etadi [Васильев, Куликов, Пащенко 2020, 171 – 191]. Oltinchi texnologik to'liqning o'zagini, olimlar ta'kidlaganidek, bir-biri bilan konvergensiya kirishib, murakkab o'z-o'zini tashkil etuvchi "nano", "bio", "info" va "kognitiv" texnologiyalar majmualari yaratadigan yo'nalishlar tashkil etadi. Ushbu yo'nalishlar natijasida antropomuhit va texnomuhitning yanada keskinlashuvi kutiladi [Васильев, Куликов, Пащенко 2020, 171 – 191].

Mutaxassislarining prognoziga ko'ra, yettinchi texnologik to'liqindan oldingi barcha ko'rinishlarining bir-biridan farqi ishlab chiqarish texnologiyalarining asosini inson ishtirokisiz qaror qabul qiluvchi intellektual tizimlar tashkil etishida namoyon bo'lishidir.

“Inson ishtirokisiz” texnologiyalar asosiy ishchi kuchiga aylanadi va unda ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida har qanday vazifani sun’iy intellekt bajaradi. Asosiy omil va ishlab chiqarish vositasi sifatida kognitiv texnologiyalar va prediktiv (katta miqdordagi tarixiy ma’lumotlar va uning natijasida olingan yopiq qonuniyatlar bazasi) tahlil prognoz qilinmoqda. Xo’jalik mexanizmining funksional asosini bozor subyektlarining integratsiyalashgan tuzilmalari (davlat, xususiy korporatsiyalar, fan va ta’lim), texnoparklar tashkil etadi. Bunday modernizatsiyalashuvning ijtimoiy oqibatlari sifatida mashinani o’qitish, inson ishtirokisiz amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayonlarini namoyon etish bo’ladi [Человек и системы искусственного интеллекта 2022, 330].

Kelajakdagi texnologik va iqtisodiy rivojlanish to’lqinlarining bunday tasvirlari jamiyat hayotida huquq va huquqiy tartibning jiddiy transformatsiyalashuvi ehtimolini yanada oshishini taxmin qilish imkonini beradi. Bu yerda iqtisodiy bazis va ustqurma o’rtasidagi munosabatlarga oid ilmiy qonuniyat alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi har qanday iqtisodiy-ijtimoiy o’zgarishlar ortidan huquqning ham muayyan darajada o’zgarishi muqarrardir. Bu kabi ilmiy prognozlar hozirgi vaqtda va muayyan istiqbolda sun’iy intellektning huquqiy maqomi, jumladan, uning huquq subyekt “loyiha” sifatidagi yondashuvi masalasi atrofida bo’lib o’tadigan jiddiy ilmiy bahslar keskin tus oladi. Tabiiyki, bu kabi yondashuvlar inson uchun mavjud bo’lishi mumkin bo’lgan xavf-xatarlar nuqtayi nazaridan ijobiy ishonchni oshirmaydi.

Sun’iy intellekt yangi texnologik va iqtisodiy to’lqinning asosiy figuranti bo’lishga da’vogarlik qilar ekan, uning iqtisodiy nuqtayi nazardan inson bilan raqobatda ustun kelish ehtimoli yuqori. Bunday raqobatga inson faqat huquqiy mafkura, axloq kodekslari va huquq vositasidagina bardosh berishi mumkin. Lekin insonni himoya qilish maqsadida ushbu mexanizmlarning iqtisodiy bazasi va texnologik manfaatlari bilan qarama-qarshilikka kirishi ehtimoldan xoli emas. Shu boisdan ilgari suriladigan yuridik doktrinaning muhim vazifalaridan biri sifatida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan qarama-qarshilikni inson manfaati yo’lida bartaraf etish yo’llarini izlash o’ylab ko’riladi. Bunday izlanishlarning istiqbolli yo’nalishlari sifatida huquq ekologiyasi va huquq antropologiyasi namoyon bo’lishi mumkin. Demak, ko’rib turibmizki, inson manfaati va sun’iy intellekt imkoniyatlari o’rtasidagi bahsga faqat huquqiy tamoyillar vositasida yechimini topish mumkin bo’ladi. Bu esa, o’z navbatida, huquqshunoslarga hozirning o’zidan sun’iy intellekt oqibatlariga

avvaldan tayyorgarlik ko'rib borishni talab etadi.

Sun'iy intellektni anglash, qanchalik g'alati tuyulmasin, yetarli darajada ishlab chiqilmagan. U nafaqat turli bilim sohalari vakillari tomonidan, balki ushbu professional maydonning o'zida ham turlicha talqin qilinmoqda. Shu bilan birga, unga berilgan (yozilgan) ta'riflar borasida hozircha yagona yondashuv mavjud emas. Sun'iy intellekt harakatlanar ekan, ong va mushohadaga ega bo'lishi mumkinmi yoki inson tomonidan boshqariladimi, degan savol atrofidagi munozaralar hamon mazmun-mantiqsiz bo'lib qolmoqda.

Ushbu sohada epistemologiya va evristikaga oid metodologiyani ishlab chiqishga qaratilgan muhim tadqiqot va ishlanmalardan biri V.Finning "Intellekt, axborot jamiyati, gumanitar bilim va ta'lim" nomli kitobi hamda Y.Tarasov tomonidan tayyorlangan batafsil tahliliy ma'lumotlar alohida qo'llanma hisoblanadi [Финн 2023, 56; Тарасов 1992]. Ushbu kitobda muallif intellektual jarayonni tahlil qilar ekan, uning o'z rivojlanish bosqichlari va ilmiy komponentlari, shuningdek, muhim mazmun kasb etadigan texnik imkoniyatlar (kompyuter, noutbuk, printer va h.k.z.)dan tashqari ekzistensial (hayot to'g'risida fikrlash, unga moslashish, muammolar yechimini topish va b.) xususiyatga ega bo'lgan tafakkurni namoyon etish talab etiladi. Lekin har qanday salmoqli tadqiqotlar ham inson hayoti bilan bog'liq muammolar yechimini hal etolmaydi. Tabiiyki, endilikda sun'iy intellekt tizimlarining imkoniyatlari dunyo muammosi bo'lgan yechimlarni qanchalik hal etadi, degan savol ochiq qoladi.

Sun'iy intellekt nima uchun muhim?

Sun'iy intellekt tizimlarining xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritilar ekan, tabiiy ravishda "Nima uchun biz SIni yaratyapmiz?" degan savol ilgari surilaveradi. Ushbu savolga beriladigan javoblar ham ko'p variantli bo'lib, uning ko'rinishlari vaziyatni yanada murakkablashtiradi:

- inson miyasi qanday tuzilganini tushunish uchun yangi nazariyalarni taraqqiyotning keyingi bosqichlarini rivojlantirish maqsadida;
- mental olamda nimalar muhim ekanligini anglash uchun, biz bilmagan yoki umuman mavjud bo'lmagan narsa va hodisalarni tushunib yetish;
- insoniyatning biologik yoki texnik jihatdan imkoniyatlarini qanday "yaxshilash" mumkinligini tushunish hamda tezroq

fikrlaydigan, aqlli qaror chiqaradigan, xotirasi kuchliroq bo'lgan, ko'proq foydali ish qiladigan yangi ijtimoiy inson qiyofasini yaratish;

- “Frankenshteyn”, ya'ni dam olishsiz ishlaydigan mental va emotsional olamimizni raqamlashtirib, shu yo'l bilan abadiylikka erishish.

Falsafiy konseptualizm nazariyasi asoschilaridan biri B.Groys shunday deb yozadi: “Uzoq vaqt davomida inson ontologik jihatdan Xudo bilan hayvon o'rtasidagi o'rta maqeni egallab keldi. Shu bilan birga, inson uchun Xudoga yaqin bo'lish hayvonga yaqin bo'lishlikdan ko'ra ancha nufuzliroq hisoblangan. Endilikda esa, biz yangi zamonaviy jamiyatda insonni hayvon bilan mashina o'rtasiga joylashtirishga intilyapmiz. Ushbu yangi kontekstda esa, afsuski, hayvon tasvirida namoyon bo'lish, mashina bo'lishdan ko'ra yaxshiroqdek tuyuladi” [Гройс 2022, 77]. Bugungi kunda AlphaZero turidagi intellektual, o'z-o'zini o'rgatuvchi dasturlar deyarli barcha chegaralarni buzib tashladi: shaxmat, go, syogi, hatto poker... AlphaZeroning ilgarigi chempion – StockFish dasturi bilan o'ynagan shaxmat partiyalari yuzasidan ko'plab zavq bilan yozilgan tahlillar paydo bo'ldi. AlphaZero o'zining “chuqur intuitsiyasi” hisobiga g'alaba qozondi: u bir soniyada “bor-yo'g'i” 80 ming pozitsiyani hisoblab chiqargan (o'sha paytda StockFish – 70 million), shunga qaramasdan, yutqazmadi [Войниканис, Семенова, Толпе 2018, 137].

AlphaZeroning o'yini ko'proq yaxlit xarakterga ega deb hisoblanadi: barcha yurishlar yagona maqsadga bo'ysundirilgan bo'lib, uzoq muddatli nuqtayi nazardan qaralsa, hatto g'ayrioddiy va xato bo'lib tuyuladigan yurishlar ham amalga oshiriladi, raqibni esa sugsvang (shaxmatdagi o'yin uslubi bo'lib, u raqibning keyingi yurishini ham murakkablashtirib, xato qilishga majburlaydi) deb ataladigan holatga majburlaydi. Sun'iy intellektning ushbu dasturi “sun'iy intuitsiya”dan foydalangan holda, qat'iy va befarq qayta hisoblash mantig'iga qarshi ravishda paydo bo'ldi [Человек и системы искусственного интеллекта 2022, 328]. Tabiiy fanlar inson haqidagi asosiy savollarga “mikroskoplar va teleskoplar” yordamida javob izlaydi, biroq bu yo'l bilan ma'nolarni topib bo'lmaydi, holbuki aynan ular inson uchun ma'nolar tuzilmalaridan ham muhimdir. Arxeologiya va sivilizatsiya masalalari obyektlarni identifikatsiya qilish va o'lchashtan tashkil topar ekan, unda inson miyasining tafakkurga nisbatan ahamiyatini ko'rsatadi. Ayniqsa, barqaror obyektlar sun'iy intellektda umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. U asosan ko'p o'lchamli sohalarda mavjud bo'lib, bir

vaqtning o'zida bir-biriga va o'z-o'ziga joylashtirilgan, ayni damda bizga noma'lum bo'lgan "miya matematikasi"ga muvofiq tarzda mavjud bo'ladi.

Inson miyasi – kishilik evolyusiyasining cho'qqisi bo'lib, u aql bovar qilmas yuksakliklarga erishgan. Ushbu evolyutsiya matematika tillarini, musiqani, poeziyani yaratgan. Lekin ushbu mumtozlikni anatomiyalashtirish befoyda. San'at bizga dunyo o'zgacha tasavvurlar bilan ko'rsatib beradi. Insonlar dunyosiga qalb va zavq-shavq bilan kiradi. Lekin bunda ko'chirilgan nusxani emas, balki dunyoni "paypaslash" yordamida, unga tafakkur orqali yetib borish uchun qilingan mental va emotsional sa'y-harakat tushuniladi.

Sun'iy intellekt tizimida asl madaniy diskurs konteksti kognitiv ma'lumotlarning ilgarilab ketishini u qadar yuqori baholamaydi. Holbuki, zamonaviy badiiy tilda so'zlashuvchi san'atkorlar mental harakatlarni mutlaqo noodatiy usullar bilan amalga oshiradilar. Miya faoliyati san'atda o'zini kognitiv mahsulot sifatida namoyon etadi. Masalan, barokko rassomchiligi diqqat markazini nur bilan ajratib ko'rsatadi, surrealizmda esa "mavjud bo'lmagan" kombinatsiyalar namoyon bo'ladi. Sun'iy intellekt esa dunyoni geometrik shakllar orqali tasvirlashga urinadi. Shakllardan umuman voz kechadi yoki faqat "g'alis" g'oyalarni ifodalovchi shakllardan foydalanadi va barcha shakllar hamda ranglarni inson tafakkuridan tashqarida bo'lgan "qora kvadrat"ga joylashtiradi ... Va bularning barchasini istiqboldagi tasviriy san'at sohasida kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi. Musiqa va poeziyada vaqt bilan, balet va arxitekturada esa gravitatsiya va makon bilan o'ynash kuzatiladi... [Гройс 2022, 79]. Miya faoliyati san'at asarlarini yaratarkan, go'yoki tabiat qonunlarini, jumladan, hali kashf etilmagan qonunlarning ham mustahkamligini sinab ko'radi. San'atdagi uslublar diqqatli kuzatuvchiga ma'nolar bilan ishlash repertuarini ochib beradi. Sun'iy intellekt san'atni butunlay boshqa timsolda gavdalantirishi mumkin.

Bizni qiziqtirayotgan muayyan biologik makonning dunyo manzarasini anglamasdan turib, sun'iy intellekt subyektlaridagi mavjud imkoniyatlarning kommunikativ o'zaro ta'siri haqida gapirish mumkin bo'lmaydi. Sun'iy intellekt faqat biz unga nimani o'rgatsak, shunigina amalga oshiradi, degan odatiy izoh asosli emas. Inson evolyutsiyasining o'z qonunlari mavjud va u har qanday murakkab tizimlari qandaydir genezisga ega bo'lishidan qat'iy nazar, o'z-o'zidan rivojlanishi mumkin va uning natijalari kam ilmiy prognoz qilinadi.

“Sun’iy intellekt” tushunchasining mohiyati muhim ijtimoiy-falsafiy muammo bo’lib qolaveradi. U inson intellektual faoliyatini avtomatlashtirish va mexanizatsiya qilishning barcha usullarini o’z ichiga oladi. Demak, sun’iy intellekt davrida qo’l mehnati mavjud, mashinalashtirilgan sanoat ishlab chiqarish usuli mavjud va shuningdek, intellektual faoliyat ham mavjudligicha o’z faoliyatini davom ettiradi [Ашинов, Буданов 2016, 59 – 77].

Ma’lum bir bosqichda inson ushbu faoliyat uchun turli instrumentlardan foydalana boshladi va aynan shu raqamli, elektron instrumentlar haqida bu yerda so’z boradi. Shu munosabat bilan algoritmik sun’iy intellekt haqida, insonning formallashtirilgan intellektual-mantiqiy faoliyatini to’g’ridan-to’g’ri modellashtirishga urinishlar haqida, shuningdek, “mashinali o’qitish” deb ataluvchi jarayon – inson intuitsiyasini mashinali modellashtirishga qaratilgan urinishlar haqida ham so’z yuritish mumkin.

Alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda sun’iy intellekt kommunikatsiya sohasini ham qamrab olmoqda. Ilgarigi inqiloblar aynan kommunikatsiyadan boshlanib, keyin inson hayotining barcha sohalariga tarqalgan. Aytish mumkinki, hozirgi kundagi inqilobning ildizlari telegraf va telefon ixtiro qilingan davrga borib taqaladi. Bugun kommunikatsiyaning turli shakllari ko’p jihatdan sun’iy intellekt sohasidagi yutuqlar tufayli bir-biriga yaqinlashdi.

Ehtimol, eksponensial tendensiyalarni hisobga olgan holda, biz bugungi kunda inson va mashina o’rtasidagi to’g’ridan-to’g’ri interfeysga asoslangan navbatdagi axborot inqilobining boshlanish nuqtasida turganligimizni his etmog’imiz lozim. Ushbu interfeys inson miya faoliyatidagi elektron va elektr impuls-lari bilan kechuvchi tafakkur jarayonlari hamda tashqi kompyuter dunyosi o’rtasidagi bog’lanishni nazarda tutadi. Endilikda kompyuter inson xotirasi, diqqati va tezkor fikrlashini keskin kuchaytiruvchi vositadir. U o’zida kishi tasavvur qilishi mumkin bo’lgan millionlab obrazlarni o’z ichiga oladi, o’zidagi dasturiy funksiyalar yordamida aqliy mushohadadan tezroq ishlaydi. Kompyuter dasturlari bir vaqtning o’zida ko’plab vazifalarning yechimini topadi, holbuki, inson ongida bunday shart-sharoit va imkoniyat yo’q. Tadqiqotchilar buni alohida, yakka tartibdagi tafakkurga qiyoslashadi.

Xulosa

Fikrimizning yakuni sifatida yana bir bor epistemologik nuqtayi nazarga qaytamiz. Fransuz mutafakkiri Mishel Serr shunday yozadi: “Biz boshimizni yo’qotdik”, – ya’ni, hayot mobaynida to’plagan

bilimlar endilikda boshimizda joylashgan emas. Ular atrofimizda – daftarlar, kitoblar, fayllar, kompyuter xotirasida mavjud. Monten ham doimo kitobini yonida olib yurardi, chunki uning davrida xotira kitob sahifalarida joylashgandi. Gutenberg davrida kitobni yoddan bilish talab qilinmasdi. Aristotel asarlari mexanik yod olishdan ko'ra fikr yuritishni talab qilardi. Endi matn bilan ishlash usuli o'zgardi. Kitob – bu xotirani saqlash joyi bo'lib qoldi [Cepp 2022, 61].

Xotiraning yangi usuli bugunga kelib yanada radikallashti. Endi xotira butunlay tashqi muhitga, noutbuk va smartfonlarga ko'chirilgan. Biz istalgan paytda internet saytlaridan kerakli ma'lumotni topamiz, shu bois ma'lumotni yodlashga ehtiyoj qolmaydi. Serr buni Monten bilan qiyoslaydi: Monten tafakkurini kitob bilan "kengaytirgandi", biz esa uni ekran va monitorlar bilan kengaytiraymiz [Cepp 2022, 61].

Virtual olam insondagi bilish va bilimsizlik o'rtasidagi muvozanatni o'zgartirib yubordi. Bizning avvalgi tasavvurlarimiz axborotlar dunyosida juda tez eskirib qoladi. Biz hozirgi kunda vaqtni soatsiz qanday aniqlay olamiz? Qachon oxirgi marta telefon raqamlarini yod olganmiz? Biz bugun mobil telefonsiz hayotimizni tasavvur qila olamizmi? Ammo yana bir savol tug'iladi: biz kompyutersiz qanday qilib tafakkur qila olamiz? Qachon oxirgi marta qo'lda hisob-kitob qildik? Savollar, savollar, savollar... Endi ushbu savollarga javobni sun'iy intellekt tayyorlab beradi. Axborotlashgan jamiyat insonni yana bir bosimdan xalos etgandek. Aslida shundaymikan?

Sun'iy intellekt paradoksli olamni yaratdi. Bundan 30-40 yil muqaddam mutaxassis insonda neft qidirish yoki samolyot yaratish qobiliyati bo'lishi kerak edi. Hozir esa har bir kishi, yosh yoki keksa internet orqali kerakli bir so'zni qidirishi, vikipediya yoki googleni ocha bilishi va hokazo ko'nikmalarga qodir bo'lishi lozim. Ushbu o'zgarishlar natijasida ongdagi ma'lumotlar bazasi kengaydi. Ammo, bu kengayish nafaqat tashqi vaqt hissasiga, balki kalendar soatlariga ham bog'liq. Bugun bizda vaqtni his qilish sezgisi ham, intuitsiya ham, diqqat ham o'zgarmoqda.

Shunday qilib, biz aynan axborot inqilobini (ya'ni ongning kengayishi inqilobini) boshdan kechirmoqdamiz. Bu kengayish nafaqat smartfon, noutbuk yoki kompyuter bilan bog'liq, balki ma'no tushunchasining o'zi bilan ham bog'liq. Ma'no – bu zamonaviy inson ongining kengayishida hal qiluvchi elementdir. Matnni o'qish, uni bir tildan ikkinchisiga ko'chirish, qayta kodlash jarayonlari, ularning barchasi ma'no bilan ishlash shakllarini namoyon etadi.

Sun'iy intellekt tizimi ushbu jarayonlarni muvofiqlashtiradi va ilmiy-
texnologik jarayonlarni yanada tezlashtiradi.

Adabiyotlar

- Ўзбекистон Республикаси Президенти. 2024. “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-358-сон Қарор. 14 октябрь.
- Ашинов, В. И., Буданов, В. Г. 2016. “Парадигма сложности и социогуманитарные проекции конвергентных технологий.” *Вопросы философии*, 1: 59–70.
- Антропология революции*. Под ред. И. Прохорова, А. Дмитриев, И. Кукулин, М. Майофис. 2009. Москва: Новое литературное обозрение.
- Bogomolova, N. N. 1991. *Социальная психология печати, радио и телевидения*. Москва: МГУ.
- Mead, Margaret. 1988. *Culture and the World of Childhood*. Москва: Наука.
- Қодиров, У. Д., Қаршиев, Ж. М. 2021. “Таълим жараёнида сунъий интеллектдан фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари.” *Замонавий таълим*, 4 (101): 6.
- Mayer-Schönberger, Viktor, and Kenneth Cukier. 2014. *Большие данные: революция, которая изменит то, как мы живем, работаем и мыслим*. Москва: Манн, Иванов и Фербер.
- Глинский, Б. А. 1990. *Философские и социальные проблемы информатики*. Москва: Наука.
- Гройс, Борис. 2022. *Введение в антифилософию*. Москва: Ad Marginem Press.
- Лекторский, В. А. 2012. *Философия, познание, культура*. Москва: Канон-плюс.
- Тарасов, Е. Ф. 1992. *Проблемы теории речевого общения: Научный доклад по опубликованным трудам*. Москва: Институт языкознания РАН.
- Putnam, Hilary. 1999. *Philosophy of Mind*. Translated by L. B. Makeeva, O. A. Nazarova, and A. L. Nikiforov. Москва: Dom Intellektualnoy Knigi.
- Putnam, Hilary. 2002. *Reason, Truth and History*. Translated by T. A. Dmitrieva and M. V. Lebedeva. Москва: Praxis.
- Fodor, Jerry A. 1981. “Methodological Solipsism Considered as a Research Strategy in Cognitive Psychology.” In *Representations: Philosophical Essays on the Foundations of Cognitive Science*, 225–257. Harvester Press.
- Финн, В. К. 2023. *Интеллект, информационное общество, гуманитарное знание и образование*. Москва: Стереотип.
- Васильев, С. С. 2019. “Человек и системы искусственного интеллекта.” *ЕГНС «Поиск»*, 50 (1592): 10–11.
- Васильев, С. Н., Жерлов, А. К., Федосов, Е. А., Федунов, Б. Е. 2000. *Интеллектуальное управление динамическими*

системами. Москва: Физматлит.

- Воронцов, С. А., Мамычев, А. Ю. 2019. "Искусственный интеллект в современной политической и правовой жизнедеятельности общества: проблемы и противоречия цифровой трансформации." *Территория новых возможностей. Вестник ВГУЭС*, 4: 59.
- Васильев, С. Н., Куликов, Ю. И., Пащенко, Ф. Д. 2020. "Интеллектуальные системы управления и нечеткие регуляторы. Ч. I. Нечеткие модели, логико-лингвистические и аналитические регуляторы." *Automation and Remote Control*, 81 (1): 171–191.
- Войниканисі Е.А., Семеновai Е.В., Толпеі Г.С. 2018. "Искусственный интеллект в возможностях самообучающихся алгоритмов." *Вестник ВГУ. Серия: Право*, 4: 137.
- Человек и системы искусственного интеллекта*. Под ред. акад. РАН В. А. Лекторского. 2022. Санкт-Петербург: Издательство «Юридический центр».
- Серр, Мишель. 2022. *Договор с природой*. Санкт-Петербург: Издательство Европейского университета.

Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies

Komil Kalanov¹

Abstract

In this article, the author analyzes the impact of artificial intelligence one of the most pressing topics of our time on the social sciences within the framework of cognitive science. It is well known that scientific and technological developments in the field of artificial intelligence are not only transforming science and education, but are also encompassing all areas and sectors related to human and social life. Under such conditions, the influence of artificial intelligence on the social and humanities sciences, its consequences, and emerging trends of expected change call on scholars in the field to engage in serious academic inquiry. Within the system of social and philosophical sciences, realities associated with artificial intelligence have been periodically studied as phenomena connected with the human factor and human psyche; this article provides a systematic analysis of these studies. The author also draws attention to the fact that, regardless of

¹ *Komil K. Kalanov* – Candidate of Sociological Sciences, Professor, Tashkent International Financial Management and Technologies University (TIFT).

E-mail: komiljon@yandex.ru

ORCID ID: 0009-0009-2344-1814

For citation: Kalanov, K.K. 2024. "Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 133 – 155.

how rapidly artificial intelligence is entering state and social life, a second group of researchers has directed discourse analysis toward examining not only its positive aspects, but also its specific negative dimensions. The article analyzes the impact of artificial intelligence on the development of contemporary models of brain activity, consciousness and thinking from philosophical and sociological perspectives, as well as on cognitive psychology and cognitive linguistics.

Key words: *artificial intelligence, cognitive science, brain activity, consciousness, thinking, cognitive psychology, cognitive linguistics.*

References

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2024. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son Qaror. 14 oktabr.
- Ashinov, V.I., Budanov, V.G. 2016. "Paradigmaslojnosti sotsiogumanitarnye proeksii konvergentnykh texnologiy." *Voprosy filosofii*, 1: 59–70.
- Antropologiya revolyusii*. Pod red. I. Proxorova, A. Dmitriev, I. Kukulin, M. Mayofis. 2009. Moskva: Novoe literaturnoe obozrenie.
- Bogomolova, N. N. 1991. *Sotsialnaya psixologiya pechati, radio i televideniya*. Moskva: MGU.
- Mead, Margaret. 1988. *Culture and the World of Childhood*. Moskva: Nauka.
- Qodirov, U. D., Qarshiev, J. M. 2021. "Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning o'ziga xos jihatlari." *Zamonaviy ta'lim*, 4 (101): 6.
- Mayer-Schönberger, Viktor, and Kenneth Cukier. 2014. *Bolshie dannnye: revolyusiya, kotoraya izmenit to, kak my jivem, rabotaem i myslim*. Moskva: Mann, Ivanov i Ferber.
- Glinitskiy, B. A. 1990. *Filosofskie i sotsialnye problemy informatiki*. Moskva: Nauka.
- Groys, Boris. 2022. *Vvedenie v antifikilozofii*. Moskva: Ad Marginem Press.
- Lektorskiy, V. A. 2012. *Filosofiya, poznanie, kultura*. Moskva: Kanon-plyus.
- Tarasov, Ye. F. 1992. *Problemy teorii rechevogo obsheniya: Nauchnyy doklad po opublikovannym trudam*. Moskva: Institut yazykoznaniya RAN.
- Putnam, Hilary. 1999. *Philosophy of Mind*. Translated by L. B. Makeeva, O. A. Nazarova, and A. L. Nikiforov. Moskva: Dom Intellektualnoy Knigi.
- Putnam, Hilary. 2002. *Reason, Truth and History*. Translated by T. A. Dmitrieva and M. V. Lebedeva. Moskva: Praxis.
- Fodor, Jerry A. 1981. "Methodological Solipsism Considered as a Research Strategy in Cognitive Psychology." In *Representations: Philosophical Essays on the Foundations of Cognitive Science*, 225–257. Harvester Press.
- Finn, V. K. 2023. *Intellekt, informatsionnoe obshchestvo, gumanitarnoe znanie i obrazovanie*. Moskva: Stereotip.
- Vasilev, S. S. 2019. "Chelovek i sistemy iskusstvennogo intellekta." *YeGNS*

- «Poisk», 50 (1592): 10–11.
- Vasilev, S. N., Jerlov, A. K., Fedosov, Ye. A., Fedunov, B. Ye. 2000. *Intellektualnoe upravlenie dinamicheskimi sistemami*. Moskva: Fizmatlit.
- Voronsov, S. A., Мамычев, А. Ю. 2019. “Iskusstvennyy intellekt v sovremennoy politicheskoy i pravovoy jiznedeyatelnosti obshchestva: problemy i protivorechiya sifrovoy transformatsii.” *Territoriya novyx vozmozhnostey. Vestnik VGUES*, 4: 59.
- Vasilev, S. N., Kulikov, Yu. I., Ращенко, F. D. 2020. “Интеллектуальные системы управления и нечеткие регуляторы. Ч. I. Нечеткие модели, логико-лингвистические и аналитические регуляторы.” *Automation and Remote Control*, 81 (1): 171–191.
- Voynikanis, Ye.A., Semenova, Ye.V., Tolpe, G.S. 2018. “Iskusstvenniy intellekt v vozmozhnostyax samoobuchayushixsya algoritmov.” *Vestnik VGU. Seriya: Pravo*, 4: 137.
- Chelovek i sistemi iskusstvennogo intellekta*. Pod red. akad. RAN V. A. Lektorskogo. 2022. Sankt-Peterburg: Izdatelstvo «Yuridicheskiy sentr».
- Serr, Mishel. 2022. *Dogovor s prirodoy*. Sankt-Peterburg: Izdatelstvo Yevropeyskogo universiteta.